

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

MAVZUSIDAGI XALQARO II MIY-AMALIY ANJUMAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mas‘ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay‘ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev
PhD. dots. M.A.Qurbonov
f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G‘.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov
kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova

Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

4. APCC – Англо-русский синонимический словарь / Под.ред. Ю.Д. Апресяна. – М.: Русский язык, 1988. С. – 281.

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI SOMATISM KOMONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING GENEZISI

Niyozova Mashhura Usmonovna

Andijon davlat chet tillar instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi ba'zi somatizm komponentli frazeologik birliklarni kelib chiqish tarixi haqida ma'lumot beradi. Berilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, frazeologik birliklarning vujudga kelishi turli xil davr va makonda yuz bergan bo'lib, ularning linvistikaing lug'at boyligidan o'rin olishida turli voqea va hodisalar sabab bo'lganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bundan tashqari, sinonimiya xodisasini linvistikadagi o'zni va sinonim so'z va iboralar yuzasidan tadqiqot ishlari olib borgan tilshunoslar haqida so'z ketgan.

Kalit so'zlar: Genezi, etimologiya, mifologiya, frazeologik birlik, somatizm.

Abstract: This article presents examples of phraseological units with a somatism component that are synonymous with each other in the English and Uzbek languages. Examples of their use in fiction are also given. These phraseological units are thematically diverse, colorful and artistically perfect. In addition, the role of synonymy in linguistics and the linguists who conducted research on synonymous words and phrases were discussed.

Key words: Synonym, synonymy, nation, phraseological unit, somatism,

Аннотация: В данной статье представлены примеры фразеологизмов с компонентом соматизма, являющихся синонимами друг друга в английском и узбекском языках. Также приведены примеры их использования в художественной литературе. Эти фразеологизмы тематически разнообразны, красочны и художественно совершенны. Кроме того, обсуждалась роль синонимии в лингвистике и лингвисты, проводившие исследования синонимичных слов и словосочетаний.

Ключевые слова: Синоним, синонимия, фольклор, фразеологизм, соматизм.

Til ilmida frazeologizm, frazeologik birlik, fraza, ibora, idioma kabi atamalar o'rganilib kelingan. Frazeologik birliklarni o'rganish va tadqiq etish tilshunos olimlarni qadimdan qiziqtirib kelgan. XIX asrgacha iboralar lug'atshunoslik tarkibida o'rganilib, bunda ularning faqat ma'nolari va etimologiyasi bayon etilgan. Frazeologiya sohasini o'rganishning bir muncha qiyin tomonlari bo'lib avvalambor tilshunoslikning bir qator fanlari leksikologiya, stilistika, fonetika, grammatika, mantiq, mamlakatshunoslik va tarix kabi fanlar ma'lumotiga suyangan holda o'rganishni taqqazo etadi.⁷⁰ Frazeologik birliklarning genezisini o'rganish ularning kelib chiqishi, etimologiyasi, birlikning ilk bor qo'llanilishi

⁷⁰ U.Y.Abdurazzaqov. Frazeologi birliklarning mulqotdagi o'zni.- International Multidiciplinary Research in Academic Science, Volume6 Issue 06 October2023 .

tarixi haqida ma'lumot berishdir. **Genezis**⁷¹ grekcha: Γένσις, Γένεση — kelib chiqishi, paydo bo'lishi degan ma'nolarni bildiradi.

Ko'p sonli ingliz frazeologik birliklari ingliz tili lug'at boyligidan o'rin olishida qadimgi mifologiya, tarix va adabiyotni ham o'rni beqiyos, hamda bu frazeologik birliklarning aksariyati kelib chiqishiga ko'ra xalqaro xarakterga ega bo'lib, boshqa bir qator tillar lug'atida ham uchrashi mumkin. Masalan, quyidagi somatik iboralarni paydo bo'lishi qadimgi mifologiyaga borib taqaladi: Achilles' heel (Axillesing tovoni), "Iliada" va "Odiseya" she'rlaridan *on th knees of the God* (faqat xudo biladi yoki o'zbekcha ekvivalenti yolg'iz ollohga ayon); Aflotunning falsafiy asrlarida esa *hand on the torch* somatism komponentli frazeologik birlik *donolik, bilimdonlikni* ifodalash uchun qo'llanilgan.

Ba'zi somatik frazeologik birliklarning yaratilishida tarixda yuz bergan voqealar ham sabab bo'lgan. Jumladan: *It costs an arm and a leg* — narxi bitta qo'l, bitta oyoqqa tushdi degani. Bu juda ham qimmat narsaga nisbatan qo'llaniladi. Ayrim tilshunoslarning fikriga ko'ra, ingliz askarlari urushga ketib, ana shu urushdan biri qo'lsiz, biri bitta oyoqsiz qaytishgan va urush askarlar uchun bitta qo'l yoki bitta oyog'ini yo'qotishiga olib kelgan, ya'ni juda qimmatga tushgan. O'zbek frazeologizmida ham shu kabi ibora mavjud — otning kallasidek - judayam qimmat degani ya'ni bitta otning kallasi qolgan xonaki hayvonlarga nisbatan kattaroq va og'ir bo'lgan, shuning uchun bu iboraga aylangan.

Ushbu xolat dunyo tillarining har biri uchun o'rinlidir, ingliz tilidagi iboralarning ham kelib chiqishi ham asosan buyuk adiblarning ishlari va xalq og'zaki ijodi bilan aloqadordir. Ingliz tilini boyitgan Frazeologik birliklar soni bo'yicha esa Shekspir asarlari Bibliyadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Ularning soni 100 dan ortiq. Shekspir iboralarning aksariyati Shekspir asarlarida faqat bir marta uchraydi va ularning shakli qat'iydir. Bu keng tarqalgan Frazeologik birliklarning ba'zilaridan namunalar:⁷² *Green-eyed monster* V. Shekspirning "Otello" dramasiida ilk bor keltiigan bo'lib, so'zma-so'z tarjimada "yashil ko'zli yirtqich hayvon" ma'nosini beradi va turg'un birlikma sifatida hasadgo'likni ifodalaydi; *Having an itching palm* "Yuliy Tsezar" asarida poraxo'r, xudbin, ochko'z odamni tasvirlash uchun foydalaniladi va o'zbek tilidagi muqobil ekvivalenti "ko'zi och bo'lmoq" iborasiga mos keladi;

"Venetsiyalik savdogar" asarida ilk foydalanilib, keyinchalik xalq orasida keng qo'llanilib kelinilayotgan somatik frazeologik birlik *to one's heart's content* birovning ko'nglingga qarab, kimingdir xoxshiga ko'ra kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Zamonaviy ingliz tilida shekspirizmlarga ma'lum o'zgarishlar kiritildi hamda ular qisqartirilgan shaklda qo'llanila boshlandi, buning natijasida miqdoriy variantlar paydo bo'ldi. Miqdoriy variantlar elementlarni kesish yoki qo'shish orqali hosil bo'ladi. Ushbu o'zgarishlarning ba'zilarini quyidagi misollar bilan ko'rsatish mumkin. Shekspirning "Otello"sida uchraydigan *wear one's heart upon one's sleeve for dew to peck at* somatism komponentli frazeologik birlikma

⁷¹ С. А. Кузнецова. М. В. Зарвы «Русское словесное ударение», Генезис кристаллов // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.

⁷² А.В. Кунин " Курс фразеологии современного английского языка".-Москва.: "Вышая школа" 1996-С113

“o‘z his-tuyg‘ularini ko‘z-ko‘z qilish” ma‘nosini anglatib, zamonaviy ingliz tilida odatda qisqartirilgan shaklda ishlatiladi sleeve: *wear one’s heart upon one’s*.

Ko‘pgina Shekspir iboralari vaqt o‘tishi bilan leksik variantlarga ega bo‘ladi: masalan: “Titus Andronicus” asarida qo‘lanilib, ingliz tili lug‘vaviy boyligi qatoriga kiritilgan “*cram (ram or thrust) something down somebody’s throat*” (kingadir o‘z fikrini yoki qarashlarini uqtirmoq) somatism komponentli ibora hozirgi zamonaviy ingliz tiling og‘zki va yozma nutqida *thrust something down somebody’s throat* kabi qisqargan shaklda uchraydi. Bir qator hollarda ilgari mavjud bo‘lgan frazeologik birliklar esa mashhur yozuvchilar tomonidan qo‘llanilishi tufayli mashhurlikka erishdi. Masalan, Tekerey orqali adabiyotga kiritilgan “*skeleton in the closet*” somatik iborasi *begonalardan yashirilgan oilaviy sir* ma‘nosini qo‘llaniladi.

“Injil tarjimalarining ingliz tili lisoniy boyligiga katta hissasi mavjudligi barhaga ma‘lum; asrlar davomida Injil Angliyadagi eng ko‘p mutola qilingan kitobdir hamda undagi parchalar eng ko‘p iqtiboslar uchun foydalaniladigan manba bo‘lib xizmat qilgan; Injil sahifalaridan ingliz tiliga nafaqat alohida so‘zlar, balki butun idiomatik iboralar (ko‘pincha ibroniy va yunoncha idiomalarning so‘zma-so‘z tarjimalari) kirib kelgan. Ingliz tiliga kirgan Bibliyadagi iboralar va iboralar soni shunchalik ko‘pki, ularni to‘plash va ro‘yxatga olish juda murakkab ish hisoblanadi⁷³”.

Yuqorida bayon etilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdii dunyo tillarining frazeologik lug‘at boyligini oshishida yozuvchilar asarlari, siyosatchilar nutqida foydalanilgan iqtiboslarning, turli tarixiy va adabiy manbaalarning ta‘siri kattadir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк.Тошкент, I том, 1960. –250б; II том,1961. –214б; III том, 1963. –257 б.
2. М. Abduraximova. Qisqa o‘zbekcha va ruscha izohli lug‘at – Tashkent “O‘qituvchi ” nashriyoti, 1980.
3. Расулов Р. Умумий тилшунослик . – Тошкент: Фан ва технология, 2007. – Б.19.
4. M.Gadoyeva. Social Science and Humanities. FARS Publishers Impact factor- 6.786. Volume-11/Issue2/ 2023
5. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – Москва: Просвещение, 1967. – С. 91.
6. Рахматуллаев Ш. Семик таҳлил ва лексик синонимияни таърифлаш масаласи// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1984. – №6. –Б.25-30.
7. Смит. Фразеология английского языка. М.: 1959 .-С.110-111
8. Қўчқортоев И. Луғавий синонимик воситалар ва уларнинг асосий турлари. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1984. –№ 4 –Б.3-7.
9. www.ziyounet.uz
10. www.edu.uz
11. <https://uz.m.wikipedia>
12. www.kitobxon.com

⁷³ Смит. Фразеология английского языка. М.: 1959 .-С.110-111

13. google.academy.com
14. scholar.google.com

INGLIZ PAREMIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Dadaboyeva Malikaxon Farxodjon qizi,
ADCHTI 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada ingliz maqollarining semantik-struktur va stilistik xususiyatlarining qisqacha qiyosiy tadqiqi ko'zda tutilgan bo'lib, xorij paremiologlarining bu boradagi qarashlari muhokama sifatida talqin etilgan.

Tayanch so'z va iboralar: paremiya, maqol, semantik-struktur xususiyatlar, paremiologik birliklar.

Abstract: The article provides a brief comparative study of the semantic-structural and stylistic features of English proverbs, and the views of foreign paremiologists in this regard are interpreted as a discussion.

Key words and phrases: paremia, proverb, semantic-structural features, paremiological units.

Maqollar avlodan-avlodga o'tib kelgan va ko'pincha kundalik nutq va yozishda yo'l-yo'riq ko'rsatish, axloqiy saboqlarni yetkazishni va umuminsoniy haqiqatlarni ifodalaydi. Ayniqsa, ingliz maqollari lingvistik va semantik jihatdan boyligi bilan mashhur xususiyatlari mavjud. Ular ko'pincha ixcham va esda qolarli tabiati bilan ajralib turadi va bu ularni kuchli aloqa vositalari sifatida xarakterlaydi. Ingliz tilida so'zlashuvchilar maqollarni keng doirada ishlatadilar: norasmiy suhbatlardan tortib rasmiy yozishgacha bo'lgan kontekstlarni o'z ichiga oladi va ular ingliz tili va madaniyatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Maqollarni o'rganish til, madaniyat va bilish haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ushbu tadqiqotda ingliz maqollarining semantik xususiyatlarini va maqollarning ma'nosiga qanday hissa qo'shishini o'rganildi. Ingliz tilidagi 30dan ortiq maqol namunasini tahlil qilinib, ularning yangi qirralarini ochishga harakat qilindi.

Ingliz maqollarining semantik xususiyatlarini tushunish majoziy tilning tabiati, tilga singib ketgan madaniy va ijtimoiy qadriyatlar, va maqollarni anglab yetishga doir bilish jarayonlari haqida ma'lumot to'plashga yordam beradi. Shuningdek, u til o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirga oydinlik kiritgan holda, tilshunoslik, kognitiv fan kabi sohalarga hissa qo'shishi mumkin. Shuning uchun ushbu tadqiqot mavjud adabiyotlarga hissa qo'shishni maqsad qilgan holda maqol va matallarni tilning yagona ajoyib qirrasini sifatida o'rganib ularning semantik xususiyatlari haqida ma'lumot berishga harakat qiladi.

Ingliz maqollarining semantik xususiyatlarini o'rganish uchun sifat va miqdoriy tahlilni birlashtirgan aralash usullardan foydalanildi. Biz tadqiqotda foydalangan maqollarimiz maqol to'plamlari, veb sahifalar va shaxsiy kolleksiyalardan olingan bo'lib, oddiy, har kungi maqollar emas, balki o'zida 'o'lchov' tushunchasini aks ettirgan maqol va matallardir.

Tahlillarga asoslanib, o'zbek va ingliz maqollarini qiyosiy o'rganishda kelib chiqishi mumkin bo'lgan semantik-struktur qiyinchiliklarni ijobiy hal qilishda

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

	USULLARI Mirzatolipova Gulzira Ulug'bek qizi	
103.	GENDERNI IFODALOVCHI NOVERBAL VOSITALARNI TUSHUNIB YETISH MASALASI Kurbanov Muzaffar Abdumutalibovich	325
104.	WORD FORMATION OF MEDICAL TERMS IN ENGLISH LANGUAGE Maxmudova Iroda	330
105.	THE ENGLISH NATIONAL MENTALITY AND ITS EXPRESSION IN THE LANGUAGE Solijonov Boburjon	332
106.	МОНОТАКСЕМНЫЕ И ПОЛИТАКСЕМНЫЕ ПРОВЕРБЕМЫ С НЕГАТИВНЫМ КОМПОНЕНТОМ В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ Назарова Д.Ш.	335
107.	PHONETIC PECULIARITIES OF STYLE Sobirjon Solijonov	340
108.	“Қиёс” концепценти ва унга семантик уйқаш стилистик воситалар таҳлили. Ашуров Мўмин Умаржонович	343
109.	ADABIYOTDA SHAKL VA MAZMUN N.M.Qodirova X.Xojiboboyeva	347
110.	IJODIY MAHORATLARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BAKALAVRANT VAQTINI YUQORI DARAJAGA OSHIRISH Abdullayeva Lola Sadullayevna	350
111.	NUTQIY AKTNING ASOSIY KATEGORIYALARI. Qurbonova Barnoxon Baxodir qizi	353
112.	ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВРЕМЕННОЙ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ Тешабаев Аллаёржон Ганиевич	356
3-SHO'BA. QIYOSIY VA CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI		
113.	“SEVGI” KONSEPTI INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI BADIY VOSITALAR TALQINIDA To'xtasinova Shoxsanam Abdujalil qizi	360
114.	INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI SOMATISM KOMONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING GENEZISI Niyozova Mashhura Usmonovna	362
115.	INGLIZ PAREMIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Dadaboyeva Malikaxon Farxodjon qizi	365
116.	O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “GO'ZALLIK” KONSEPTINING IFODALANISHI Jabborova Dilafruz Sharofovna	368
117.	INGLIZ ADABIYOTIDA ALLITERATSIYADAN FOYDALANISH TAMOYILLARI G'ofurova Gullola Axmadullayevna	370
118.	INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TILLARIDA PLEONAZM VA TAVTOLOGIYA TUSHUNCHALARI, TURLARI VA TARJIMA MASALALARI Abdusamatova Ominabonu G'ulomjon qizi	373